



2023-yil. 4-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI V AZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI
Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING |

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



2023-yil
4- son

«Til va adabiyot ta'limi»
«Преподавание языка и литературы»
«Language and literature teaching»
ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
Tolib Enazarov
To'ljin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulkumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Salima Jumayeva
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Lutfullo Jo'rarev
(bosh muharrir o'rinosi)
Aljon Safarov (elektron nashr uchun)
Madina Nuriddinova (elektron nashr uchun)
Latifa Xudayqulova (elektron nashr uchun)
Barno Kadirova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

MUNDARIJA

TAHLIL

| | | |
|--|---|-------|
| Shuxrat Mardonov. | "Sharhi mulla Jomiy" asarida zikr qilingan mashhur olimlar | 6 |
| Nilufar Namazova. | Millatparvarlik qomuslarda | 6 |
| Maftuna O'ranova. | "Boychechak" to'plamidagi allalarning badiiy-tavsiyf tahlili | 7 |
| Shahnoza Nurmamatova. | Xitoy xalq ertaklari ajdarho obrazi | 9 |
| Gulchehra Darvishova. | Effectiveness of using grammar games in teaching english | |
| Muhabbat Ruzmetova. | Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvodidaktik aspekti | 1 |
| Malika Rajapova, Aljon Mamajonov. | Allegorik vositalarning lingvokulturologik xususiyatlari | |
| Nargiza Aliyeva. | Euphemism and related stylistic devices | |
| Shohida Isakova. | Tillardagi konseptual axborotni faolshahtiruvchi strukturalar | 1 |
| Zulaykho Juraeva, Sarvinoz Khayrullaeva. | The use of dictionaries in teaching foreign language | |
| Нилуфар Ширинова. | Языковой параллелизм как научное явление | 2 |
| Dilnur Bozorova. | O'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish | 24 |

TADQIQOT

| | | |
|---------------------------------------|---|-------|
| Zafar Mamatalimov. | Anvar Obidjon she'riyatining janr va mavzu rang-barangligi | 2 |
| Xushnud Madraimov, Azimjon Majitov. | O'quvchi-yoshlar tarbiyasida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati | |
| Bunyod Ergashev, Fazliddin Shamsiyev. | Nemis tili fanini o'zlashtirishda talabaning kompetensiyalarini baholash mazmuni | 31 |
| Gulbahor Shakirova. | Fikrni yozma bayon qilishni o'rgatish va imlo ustida ishlash | 34 |
| Xolida Valiyeva. | Ta'lim tizimida tillarni o'qitish metodikasi | 35 |
| Nigora Botirova. | 5-Sinf ona tili mashg'ulotlari test topshirishlardan foydalanishning mavjud holati | |
| Zulayxo Abdunazarova. | Talabalarning reproduktiv salomatlikka oid bilimlarini takomillashtirishning ahamiyati va dolzarbli | 40 |
| Rayxon Rasulova. | O'quvchi tafakkurini o'stirishda badiiy asarlarning ahamiyati | 41 |
| Dildora Axatova. | Ibn Sino jism, ruh va aql mutanosibligining ahamiyati va tadqiqi | 4 |
| Dilobar Xoshimova. | Interaktiv fanlarni o'qitishda talabaning kreativ qobiliyatini shakllantirishning metodik ahamiyati | 44 |
| To'ljin Allayorov. | Badiiy matnda qo'llanilgan buyruq birliliklarining lingvopoetik xususiyatlari | 4 |
| Nargiza Aliyeva. | "Baxt" va "baxtsizlik" konseptiga oid frazeologik iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari | 48 |
| G'ulom Bobojonov. | Adabiyot nazariyasini o'rganishda tarixiy yondashuv | 48 |
| Islom Bo'riyev. | O'zbek tildagi iboralarni korpusda semantik teglash: muammo va yechim | |
| Maxmuda Yuldasheva. | Adabiy ta'limda evristik yondashuvga qo'yildagan psixologik, pedagogik, metodik talablar | 5 |
| Zuhra Qarshiboyeva. | Alisher Navoiy lirik merozi va poetik olami | 56 |
| Nargiza Xusenova. | Ona tili fanini o'qitishda nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradigan pedagogik vositalardan foydalanish | 58 |
| Munojat Rasulova. | Diskurs va uning antroposentrik tilshunoslikdagi mavqeyi masalasi | 62 |
| Nigora Rustambekova. | Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlari | 65 |
| Safo Matchonov. | Anvar Obidjon ijodida kichikintoylar ma'naviyatining badiiy ifodasi | 66 |
| Yulduz Shaymanova. | Abdulla Oripov ijtimoiy lirikasi | 68 |
| Laylo Doliyeva. | Frazeologimlardagi salbiy emotsiyalari klasterining kognitiv xususiyatlari | |
| Zarina Kurbanova. | Tilshunoslik faning asosiy tushunchalari va muammolari | |
| Toshqobil Muqumov. | Fransuz tilidagi frazeologik birliliklarning o'ziga xos tomonlari | |
| Gulruk Qilichova. | Fransuz adabiyotida realizm yo'nalishi | |
| Farrux Qulsaxatov. | Integrativ yondashuv Bobur ijodi talqinida | 7 |
| Nilufar Usmanova. | Ingliz tilini o'qitishda o'yinlarning roli | |

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

shayotgan davlat ramzları haqida ma'lumot berib boriladi. Yuqori sinflarga o'tganda esa oddiydan murakkabga tomon tamoyilga asosan huquqiy tarbiya mazmuni kengayib, boyib, qisman murakkablashadi. Yuqori sinflarda o'quvchilarga asosan huquqlari bilan birgalikda burchlari, majburiyatlari haqida ham ma'lumot beriladi. Rivojlanishida nuqsoni bor o'quvchilarda hissiy ta'sirchanlik kuchli bo'ladi. Shuning uchun bu bolalarga huquqiy tarbiya berishda jamoatchilik, uning turlari, salbiy oqibatlarini insonlarga va jamiyatga bo'lgan salbiy ta'siri to'g'risida tarbiya beriladi. Shu yo'sinda ilk ijtimoiy kompetensiya shakllana boshlaydi. Aloxida yordamga muhtoj bolalar o'quvchiga nazariy tarbiyani qanchalik ko'p bermang, agar bola shu vaziyatga hayotiy misol ko'satmasa, undan ta'sirlanmassa ko'ngildagi natijaga

erishib bo'lmaydi. Shuning uchun maxsus maktabda tarbiya ishining asl mohiyati bola bilan o'tkazilidigan turli suhbatlarda emas, balki bola hayotini tashkil etishdadir. Shu sababli bolaga huquqiy tarbiya berish jarayoni hayotiy misollar, qadim o'tmishda yashagan ota-bobolar hikoyatlari ham juda yaxshi ta'sir etadi. Alovida yordamga muhtoj bolalar bilish faoliyatining buzilishi natijasida ularning tevarak-atrof bilan munosabati qiyinlashadi. Natijada alovida yordamga muhtoj bola maxsus maktabga qabul qilinishida yetarli darajada axloqiy va huquqiy tajribaga ega bo'lmaydi. U haqiqatni bilishda ularni tushunib yetmaydi, kishilar va ijtimoiy hayot voqealari o'tasidagi munosabatni tushunmaydi. U o'z xulq atvorini atrofdagilar xulq-atvori bilan taqqoslamaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ma'suliyat nima? Sinf soati dars ishlanmasi
2. <https://googol.uz/ru/post/masuliyat-nima-sinf-soati-dars-ishlanmas>
3. <https://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/download/66/57/63>
4. Ijtimoiy safarbarlik va faol fuqarolik pozitsiyasi
5. <https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-safarbarlik-va-faol-fuqarolik-pozitsiyasi>
6. <https://library.samdu.uz/public/index.php/download/16595>
7. <https://interonconf.org/index.php/den/article/download/933/863>

Safo MATCHONOV

Chirchiq davlat pedagogika universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori, ped. fan. dok.

ANVAR OBIDJON IJODIDA KICHKINTOYLAR MA'NAVİYATINING BADIY İFODASI

Odatda, biror yozuvchi ijodi tahlil etilganda asarlaring mavzu doirasi, tasvir uslubining o'ziga xosligi, yaratgan obrazlarining hayotiyligi-yu tarbiyaviy ahamiyati yoki qaysi asarida qanday g'oyalarni ilgari surgani-yu badiiy til xususiyatlari yuzasidan fikr yuritiladi. Bayon qilinadigan fikr-mulohazalar mazmunan har xil bo'lsa-da, ularni bog'lab turadigan bir nuqta bo'ladi. Bu badiiy mahorat bilan bog'liq yozuvchining ijodiy individualigi masalasidir.

Taniqli bolalar shoiri Anvar Obidjon asarlariga shu jihatdan nazar tashlaganda uning shoir, nosir, kinosenarist, dramaturg, noshir sifatidagi ko'p qirrali ijodiy faoliyati ko'z oldimizga keladi. Anvar Obidjon bolalar adabiyotiga dastlab "Ona yer", "Bahromning hikoyalari" to'plamlari orqali shoir sifatida kirib keldi va mavjud ijodiy an'analardan foydalangan holda o'ziga xos yo'l tanladi. "Bulbulning cho'pchaklari", "G'alati maktublar",

"Kumush uy", "Gurungdag'i gaplar", "Ajoyibxona", "O'zimizning ansambl", "Ignalarim chiroli", "Mening kolleksiyam", "Shirin so'ylar jajjivoylar", "Kalamushlar kemasi", "Siz eshitmagan qo'shiqlar", "Dalalardan bolalarga", "Osmondan tushgan sozanda" turkum she'rlari fikrimizga dalildir. Ulardagi aksar majoziy-yumoristik tasvir bolalarning o'zlariga tanish, ammo bir qarashda hatto kattalarning ham e'tiborini tortmaydigan holat – manzaralar bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham Anvar Obidjon she'rlarida an'anaviy uslub va shakllar shartlilik bilan bezanganini ko'rish mumkin. Uning qahramonlari ko'proq hayvonlar, hasharotlar, maysa-giyohlar, dov-daraxtlar bo'lib, tasvirning qisqaligi beixtiyor diqqatni tortadi. Ayrim she'rlari ikki-uch satrdan tashkil topgan bo'lsa-da, mazmunan tugaldir.

Shoirning turkum she'rlari qo'shiq, maktub, cho'pchak shaklida yaratilgan. Ulardagi shakliy

o'xhashlik kitobxonga diqqatini jamlashga, asarlarining ma'no-mazmunini anglashga yordam beradi. Jumladan, "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkumidagi she'rlari shunchaki shakliy uyg'unlikni anglatmaydi, balki, aksincha, ularning har birida kichkintoylarda hayrat tuyg'usini qo'zg'ashga qodir quvnoq humor bilan yo'g'rigan teran hayotiy ma'no bor. Jumladan, "Tulkilar radiosida"gi "Toqat qilinglar bir oz, so'nggi bor kuylar xo'roz" tarzidagi axborot-e'lon ham, "Chumchuqlar bozorida"gi: "Buncha tiqin, mashmasha? Sotilayapti itpashsha" tarzidagi qisqagina savol-javob ham bolalarni atrofimizdagi olam bilan tanishtirish orqali ularning dunyoqarashini kengaytiradi, mushohada qobiliyatini tarbiyalaydi.

"Bahromning hikoyasi" she'rida tasvirlanishicha, Bahrom ismli bola "Yapaloq" degan tovug'i bilan inoq yashaydi. Bu don bersa u oppoq tuxumlari bilan xur-sand qiladi. Xullas, ular o'tasidagi do'stliking zamini mustahkam. Ammo bu do'stlilik Bahromning ehtiyyotsizligi, to'g'rirog'i, qo'polligi tufayli barham topadi. Uning "dangasa" deya qilgan do'qidan Yapaloq uydan bosh olib ketadi. Yapaloq arazlashining sababini yozib qoldir-gan xatida qo'pol va ta'magirligi uchun Bahromdan qat-tiq xafa bo'lganini bayon etadi. Bahrom esa qilmishidan pushaymon. Asarda qo'yilgan masalaga nisbatan mu-allif pozitsiyasi aniq. Lekin o'z munosabatini ochiq-oydin bildirib o'tirmaydi. Izchil sujetning bolalarbop tilda hikoya qilinishi, tasvirda shoirning xolis kuzatuvchi si-fatida turganligi she'rning san'at asari tarzidagi badiiy estetik ta'sirchanligini ta'minlash bilan birga, tarbiyaviy maqsadga ham xizmat etadi. Ya'ni, xushmuomalalik bilan qo'pollik haqida ma'lum tushuncha beradi.

Anvar Obidjonning "Siz eshitmagan qo'shiqlar" turkum she'rlarida didaktik g'oya ko'proq kinoya, qochiriq, piching aralash fosh etuvchi humor vositasida ifodalanadi. "Obbo kalamus-ey!" she'rida tanqid tig'i kalamushsifat kishilarga qaratilgan. Xalq mulkini kishi bilmas talon-taroj qiluvchilarga nafrat uyg'otishda shoir xarakter-xususiyatiga ko'ra ularga yaqin turuvchi kala mush obrazidan ustalik bilan foydalanadi. Mana, u ka-lamushga qarata nima deydi:

Yoz desalar
"Temir" deb,
Sen yozibsan
"Kemir" deb.

Shoir shu tariqa kalamushning aytilgan so'zni bosh-qacha yozishiga go'yo uning chalasavodligini sabab qilib ko'rsatadi. Lekin ziyrak kitobxon kalamushning "temir" o'rniga "kemir" so'zini yozishidan fahmlaydiki, u chalasavod emas, balki o'zining hayotiy prinsipini bayon qilyapti. Ma'no jihatdan bir-biridan tamom yiroq bo'lgan so'zlar (*temir, kemir*) zimmasiga asosiy g'oyaning yuk-latalishi qofiyadosh so'zlardagi favqulodda hamohanglik she'rning g'oyaviy-badiiy ta'sirchanligiga, uzoq muddat xotiramizda muhrlanib qolishiga yordam beradi.

Anvar Obidjon "Tekinxo'r" she'rida ham shu xildagi "adressiz" tanqidga murojaat etadi. Mazkur she'r ayni vaqtida real mazmunga ham ega. Tekinxo'rlikka nafrat g'oyasini ilgari surgan shoir asarda bolalarga tanish manzarani chizadi:

Qumursqavoy
Topib uvoq.
Terga botib
Tortdi uzoq.
Chumchuq kelib
Sekingina,
Yutdi-qo'ydi
Tekingina.

Qumursqaning zahmatkashligi, topgan uvog'ini "terga botib" ne mashaqqatlar bilan iniga sudrashi, lekin tekin yashashga o'rgangan chumchuqning buning bilan ishi bo'limasdan, tayyor oziqqa zo'rvonlik qilishi oddiy bir hol. Shoirning mahorati shundaki, ko'pchilik ko'rib yursa ham, e'tibor bermaydigan o'sha oddiy hayot hod-isasidan tarbiyaviy ahamiyatga molik umumlashma xulosa chiqara olgan. She'rning ta'sirchanligini ta'minlagan omillardan biri keskin vaziyatning qalamga olinganligidir. Shoir uni g'oyatda qisqa satrlarda ixcham tarzda tasvirlaydi, so'zlarni chertib-chertib tanlaydi.

Sirdan qaraganda, muallif she'rda qalamga olin-gan voqeanning shunchaki xolis kuzatuvchisi kabi ta-assurot qoldirsa-da, aslida unga bo'lgan munosabati har bir satrga sig'dirishga intilgan. Qumursqaning topgan uvog'ini "terga botib uzoq tortishi"ga e'tibor qaratilganligidan unga shoirning xayrixohligini sezish qiyin emas. U qumursqaga qanchalik xayrixoh bo'lsa, chumchuqning qilmishiga shu qadar nafrat bilan qaraydi. "Sekingina", "tekingina" qofiyadosh misralari bu pihnioniy nafratning teran ifodasidir. Shoir ularga o'z munosabatini ochiq-oydin bayon qilganida, she'rning g'oyaviy-badiiy qimmatiga so'zsiz, salbiy ta'sir ko'rsat-gan bo'lar edi.

Shoirning "Yaylovni sog'ingan qo'y" she'ri suhbat tarzida yozilgan. "Ishlar qalay?" degan savolga qo'y o'y surib shunday lo'nda javob beradi:

Kamchilik yo'q
Oziqdan...
Bezor bo'ldim
Qoziqdan.

Oldiniga qo'yning o'y surib qolishidan sergaklan-gan kichik kitobxon uning qoziqdan nega bezorligi haqida bosh qotirishiga shubha yo'q. Darvoqe, Anvar Obidjon ijodining dastlabki bosqichida yozgan mazkur she'r bilan bolalar adabiyotida ham chuqur ijtimoiy mazmunga ega asarlar yaratish mumkinligini namo-yish etganini adabiyotshunos olimlar o'z vaqtida ta'kid-

lashgandi. "Tasvirda qisqalikka intilish ko'p so'zlikdan qutqazadi, favqulodda topqirlik bilan ishlataligan tashbe-hlar o'quvchilarda hayrat tuyg'usini uyg'otadi. Ma'noni quyuqlashtirish yo'lidagi izlanishlar shu tariqa badiy-likni oshirishga yordam beradi. Lekin Anvar Obidjon ijodiy mahorati faqat bular bilan belgilanmaydi. Shoир asarları keskin hajviy ruhi, yumoristik talqini bilan ham ajralib turadi"¹.

Shoир aksariyat she'rlarida jonivorlar, narsa-pred-metlarning tashqi ko'rinishi tasviri vositasida o'quvchini o'zi ifoda etmoqchi bo'lgan mohiyat ichiga olib kiradi. Masalan:

Qarg'a kirdi
Kinoga.
O'xshab
Buratinoga.
("Bezori").

Shoир she'rlarida Begemotning burni qumg'onga, Jirafaning bo'yni narvonga, Baqaning og'zida tishi yo'q kampirga, Hakka patlari rangi ola-bula to'nga o'xshatilishi bolalarning zavqini oshiradi, jonivorlar haqida to'la-roq tasavvur hosil qilishiga imkon beradi.

A.Obidjonning mahorati shundaki, u kichkintoylar dunyoqarashidagi o'ziga xosliklarning tub mohiyatini yurakdan sezadi. Ularning ichki olamini, o'y-xayollarni, kichik qalbida kechayotgan ruhiy jarayonlarni nozik did bilan kuzatadi. Shu tufayli bir qarashda, juda oddiy ko'rindigan kichik-kichik she'rlarida Inson tabiat shakllanishining dastlabki bosqich jarayonlari keng ko'landa tahlil etib beriladi. Samimiy humor, yengil hajv elementlari yorqin ko'zga tashlanadi. Shoirning "Hali o'zim bolaman-kul", "Sinchkov bola", "Shu ham filmi?" kabi o'nlab she'rlari shu jihatdan nihoyatda xarakterlidir. "Dadajonim, dadajon, Otim nega Otajon. Axir kimga "Ota"man, Shuni o'yla-a-ab" Yotaman". "She'rnı o'qir ekansiz, endigina so'zlar ma'nosini anglay boshlayotgan bolakayning holati ko'z o'ngingizga keladi. Uning kutilmagan "muammo"li masala oldidagi o'ychanligi o'quvchining labida nurli tabassum paydo qiladi, qalbi-da kichkintoya nisbatan issiq bir tuyg'uni uyg'otadi"².

Xulosa qilganda, Anvar Obidjon she'riyatining o'ziga xosligini bir necha omilga bog'lab izohlash o'rni bo'ladi. O'z qahramonlari va kitobxonlari ruhiyatini teran anglab yetishi, asrlar davomida shakllangan mumtoz adabiyot, xalq og'zaki ijodi hamda jahon adabiyoti an'analariga mohirona yondashishi shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anvar Obidjon. Juda qiziq voqeа. – T.: Cho'pon nashriyoti, 2013. 245 b.
2. Ibrohimova Z. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. – T.: Yozuvchi, 2005. 30 б.
3. Matjon S. Bolalar adabiyotidan saboqlar. – T.: Mahalla va Oila, 2022. 312 b.

Yulduz SHAYMANOVA,
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasи,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti o'qituvchi*

ABDULLA ORIPOV IJTIMOIY LIRIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdulla Oripov ijodi haqida ma'lumot berilgan. Shoirning jamiyat, xalq hayoti bilan bog'liq lirik she'rlari tahlilga tortilib, munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: lirika, tahlil, talqin, lirik kechinma, lirik qahramon, peyzaj, ijtimoiy hayot, milliy ruh, ilhom, iqtidor.

Аннотация. В данной статье представлена информация о творчестве Абдуллы Орипова. Были проанализированы и прокомментированы лирические стихи поэта, связанные с обществом и народной жизнью.

Ключевые слова: лирика, анализ, интерпретация, лирический опыт, лирический герой, пейзаж, общественная жизнь, национальность, талант.

Abstract. This article provides information about the work of Abdulla Oripov. The poet's lyrical poems related to society and folk life were analyzed and commented on.

Key words: lyrics, analysis, interpretation, lyrical experience, lyrical hero, landscape, public life, nationality, talent.

She'riyat so'z san'atining boshqa turlaridan o'zin-ing nafisligi, his-tuyg'ularga boyligi, obrazliliği, badiiy bo'yoqdorligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turar ekan, shu sababdan ham inson qalbining tub-tubidan otilib

chiqayotgan tug'yon, voqelikka bo'lgan ehtirosli, ba'zida esa murosasiz munosabatining ifodasıdır. Lirik qahramonning murakkab, ziddiyatlı, turfa xil to'lg'onishlariga, his-tuyg'ularga, ehtiroslarga boy bo'lgan qalbisiz